YANGI O‘ZBEKISTONNI, ALBATTA, YOSHLAR BILAN BIRGA QURAMIZ

@intellektpress @intellektpress @intellektpress

# INTELLEKT

IJTIMOIY-TA’LIMIY, MADANIY-MA’RIFIY GAZETA

2022-YIL – INSON QADRINI ULUG‘LASH VA FAOL MAHALLA YILI

2020-YIL 2-SENTABRDAN CHIQA BOSHLAGAN | 2022-YIL, 16-IYUN № 11 (43) | E-MAIL: INTELLEKTPRESS@UMAIL.UZ

## KONSTITUTSIYAGA TAKLIFINGIZ BORMI?



Mamlakatimizda yuz berayotgan huquqiy-demokratik islohotlar ayni davrda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ilgari surilayotgan keng ko‘lamli vazifalar, xususan, adolatli va xalqparvar davlatni barpo etish, inson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada samarali ta’minlash kabi ulug‘vor maqsadlar asosida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘z o‘rnida, mazkur ezgu harakatlar taraqqiyotning zarur huquqiy asosini ta’minlovchi konstitutsiyaviy makonni yanada takomillashtirish ehtiyojini paydo qiladi.

Shu bois, ayni kunlarda O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlarga start berilgani xalqimiz hayotida muhim voqelik kasb etdi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar yuz berayotgan ayni kunlarda “Adolat” SDP tomonidan joylarda, partiyaning turli bo‘g‘inlarida faollar, yoshlar va xotin-qizlar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilib, fuqarolarimizga kun tartibidagi asosiy masala yuzasidan atroflicha ma’lumot berish barobarida, ularning fikr va takliflari o‘rganilmoqda.

Bugun O‘zbekiston “Adolat” SDP Samarqand viloyati Kengashi tomonidan Samarqand viloyatining eng chekka hududi bo‘lgan Qo‘shrabot tuman tibbiyot birlashmasida, tumandagi “Bolg‘ali” “Buloqboshi” hamda “Pangat” mahalla fuqarolar yig‘inlarida mazkur muhim siyosiy jarayonga bag‘ishlangan davra suhbatlari tashkil etildi.

Dastlab, tuman tibbiyot birlashmasiga tashrif buyurgan partiya faollari partiyaning Siyosiy Kengashi raisi o‘rinbosari A.Rahmonov boshchiligida “Tibbiyot sohasidagi islohotlar aholining hayotdan roziligi, el-yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qilsin” shiori doirasida sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishdilar, soha xodimlari tomonidan bildirilgan mavjud muammo va takliflarni tingladilar. Partiya faollari uchun tibbiy ko‘rik tashkil etilib, 80 dan ortiq fuqarolar chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish borasida aholining takliflarini o‘rganish, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli vazifalarni hayotga keng tatbiq etish hamda mamlakatimizdagi siyosiy islohotlarda fuqarolarimizning xohish-istaklarini aks ettirib, ularning faol va tashabbuskorligini ta’minlash maqsadida “Konstitutsiyaviy islohotlar partiyamiz dasturiy maqsadlariga mos keladi” mavzusida davra suhbati boshlandi. Tadbirda O‘zbekiston “Adolat” SDP Siyosiy Kengashi Markaziy apparati hamda hududiy, mahalliy Kengashlari xodimlari, viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatlari, partiyaning “Yosh adolatchilar qanoti”, shuningdek, “Ayollar qanoti” ilg‘orlari, jamoatchilik vakillari va OAV xodimlari ishtirok etishdi.

Davomi 4-betda

## ILMIY TADQIQOTCHILAR BILAN OCHIQ MULOQOT O‘TKAZILDI

Barchaga ma’lumki, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimidagi rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqdi, bu esa katta imkoniyatlar eshigini ochdi desak bo‘ladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-sonli farmoniga asosan mamlakatimizda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning uch yilga mo‘ljallangan ikki bosqichli tizimga o‘tishi joriy etildi.

Unga muvofiq, 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim ikki pog‘onali bo‘ldi:

1. Dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura;

2. Dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimi.

Kimlarga ilmiy darajalar beriladi?

Tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi magistr darajasiga yoki mutaxassislik dasturlari bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan, o‘rnatilgan talablar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilgan shaxslarga beriladi.

Fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasi esa fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda berilgan, unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalarga ega bo‘lgan va o‘rnatilgan talablar bo‘yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilgan shaxslarga beriladi.

Mustaqil tadqiqotchi sifatida rasmiylashtirilgan, falsafa doktori (PhD) fan nomzodi yoki xorijiy davlatlarda berilgan, unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalarga ega bo‘lgan shaxslarga ham fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishga ruxsat beriladi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qaroriga ilova qilingan Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi № 606-sonli qarori va boshqa me’yoriy hujjatlar orqali muvofiqlashtirilib turiladi.

Doktorantlar o‘qishga qabul qilingan sanadan boshlab:

- tayanch doktoranturada tahsil oluvchi shaxslarga stajyor-tadqiqotchi lavozim maoshining bazaviy miqdoriga tenglashtirilgan miqdorda stipendiya to‘lanadi;
- doktoranturada tahsil oluvchi shaxslarga fan nomzodi ilmiy darajasiga ega (ilmiy unvonga ega bo‘lmagan) katta ilmiy xodim lavozim maoshining bazaviy miqdoriga tenglashtirilgan miqdorda stipendiya to‘lanadi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’limni tugatganlar



tayanch doktorantura yoki doktoranturaga qayta qabul qilinmaydi. Bir necha ta’lim muassasasida bir vaqtning o‘zida mustaqil izlanuvchilikka yo‘l qo‘yilmaydi. Amaldagi barcha talablarni bajargan va dissertatsiyasini OAK talablariga muvofiq ravishda tayyorlagan mustaqil izlanuvchilar dissertatsiya himoyasiga qo‘yiladi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim talablarini bajargan va belgilangan tartibda dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga o‘rnatilgan tartibda davlat namunasidagi tegishli falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) diplomi beriladi.

Davomi 2-betda

## TALABALARNI MA’NAVIY SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI



Ma’lumki, har bir millat o‘ziga xosligi, milliy madaniyati, adabiyoti, tili va shu millat ruhiy (ma’naviy) tarzining majmuasida, ya’ni millat ruhiyatida o‘z ifodasini topadi.

Oliy maktab tarbiyaviy ishlarida milliy an’analar, marosimlar, rasm-rusumlar, bayramlar ma’lum darajada o‘z o‘rnini topsa, talabalarga eng samarali ta’sir o‘tkazadi, chunki umumiy xarakterlar talabchanlik faoliyati bilan uyg‘unlashadi, mustahkam jamoa bo‘lib yashashga undaydi.

Mazkur ishlar talabalarning ishtiroki ularda faollikni orttiradi, har bir shaxs o‘z qobiliyati va uquvini sinab ko‘radi. Talabalarning bunday faoliyatlarda ishtirok etishlari ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik singari xislatlarni tarkib toptiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida talabalar ongida xalq durdonalarini shakllantirish, milliy qadriyatlarning oqilona tadbirlariga e’tiborni qaratish ular ma’naviy dunyosini rivojlartiradi.

Talabalik davri o‘spirinlik davrining o‘ziga xos murakkab bosqichlaridan biri hisoblanadi, chunki aynan mana shu davrda shaxsda kasbiy bilim, ko‘nikmalar bilan bir qatorda muhim kasbiy sifatlar ham tarkib topib boradi. Talabalik davrida kasbiy sifatlarning shakllanish muammosi qator tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan.

Ko‘pgina xorij olimlarining ta’kidlashicha, bugungi kunda kasbiy sifatlarning shakllanishi o‘zining ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra inson ehtiyojlari orasida birinchi o‘ringa ko‘tarilmoqda. Bu muammo ijtimoiy nazariya va amaliyotning muammolari majmuasi bilan bog‘liq bo‘lib, psixologiyaning markaziy qismidan joy olgan. Talabalardagi kasbiy sifatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta’sirida o‘zgaruvchi alohida turlari tadqiq qilingan.

Talabalarni ma’naviy shakllantirishida ma’naviy-axloqiy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarga ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini o‘zi topishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi uchun imkoniyat yaratib beradi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada umuminsoniy, milliy qadriyatlar asosida talabalarni ma’naviy-axloqiy shakllantirish yotadi. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayoni vazifasini ado etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning taqdiri, yurtning kelajagini barpo etish talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasiga, yuksak ongiga, ijtimoiy faolligiga bog‘liq. Shunday ekan, bugungi kunda har bir talaba-yoshlar ma’naviy immunitetga ega bo‘lishi, Vatan va xalq oldidagi muqaddas burchlarini chuqur anglashi, jamiyatda yuz beradigan har qanday axloqsizlik holatlariga qarshi kurasha olishi zarur.

Hozirgi sharoitda oliy ta’lim dargohlari talabalarni yuksak ma’naviyatni egallash, atrofda ro‘y berayotgan voqealarga dahldorlik, iymon-e’tiqodli, aqliy faol bo‘lishi, ishbilarmon bo‘lishi, o‘z qobiliyatlarini tinimsiz takomillashtirib borish, irodaviy zo‘riqish, yuqori malakani egallash, raqobatdan qo‘rqmaslik va uni yengib chiqishga qodirlik, ijtimoiy kamolotga xizmat qilish ruhida tarbiyalashlari lozim. Ana shu fazilatlarni egallagan talabalarda kelajakda o‘z amaliy faoliyatidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan har qanday iqtisodiy inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyati ham shakllanadi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakat ravnaqini ko‘p jihatdan uzluksiz ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini belgilab beradi. Shu sababli ta’limning istiqboli, bugungi kunda tayyorlanayotgan mutaxassislarning bilimdonligi, kasb mahorati yuksak, ma’naviyatliliklari bilan o‘z kelajaklarini qurish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

**Farida PO‘LATOVA,**
**SamDCHTI o‘qituvchisi.**

## TA’LIMGA QARATILGAN E’TIBOR O‘Z SAMARASINI BERMAY QOLMAYDI




Bugungi kunda dunyoning siyosiy maydonida o‘z o‘rni va o‘z so‘ziga ega bo‘lgan O‘zbekistonda o‘z bag‘rida o‘sib kelayotgan yangi avlodni tarbiyalash va ularni har sohada bilimli, komil inson bo‘lib ulg‘ayishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, ta’lim sohasining muhim bo‘g‘ini sanalgan xorijiy tillarni o‘rganish va uni o‘rgatish uchun keng ko‘lamda samarali faoliyat yuritilib kelinmoqda.

Bunga yaqqol misol qilib muhtaram Yurtboshimiz tomonidan 2021-yil 19-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5117-sonli qarorini keltirishimiz mumkin. Qaror ijrosini taminlash borasida joylarda salmoqli ishlar qilinmoqda.

Jumladan, Samarqand davlat chet tillar institutida ham mazkur qaror ijrosi yuzasidan turli tadbirlar tashkil etildi. Institut rektori, professor Ilhomjon To‘xtasinov boshchiligida xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda. Butun dunyoda pandemiya sharoiti bo‘lishiga qaramay, Yaponiyadan Kameda Toshiyuki va Chiharu Tsurutani kabi yapon tili mutaxassislari o‘quv jarayoniga jalb etildi. Shu bilan birgalikda, Samarqand davlat chet tillar instituti qoshida yapon tiliga ixtisoslashgan maktablar va til o‘rgatish markazlari tashkil etildi.

Institutimizda talabalarning yapon tilini o‘rganishi borasida qaratilayotgan e’tibor sabab, talabalarimiz yuqori darajadagi yutuqlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Fakultetimiz talabalari, ya’ni Javohir Shahobov, Feruz Asliyev, Visola Shuhratova, Temur Mavlonov, Shavkat Normurodov, Laziza Ahadova, Javlon Ahmadovlarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Shuningdek, “Filologiya va tillarni o‘qitish: yapon tili” ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi Laziza Ahadova hamda Javoxir Shahobovlar Yaponiyaning MEXT dasturi grantini qo‘lga kiritib, hozirda Yaponiya oliygohlarida bir yillik ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishdilar. Institutning Sharq tillar fakultetida talabalar o‘rtasida tez-tez o‘tkazilib kelinayotgan yapon tili fan olimpiadalari va “Zakovat” o‘yinlari talabalarning yapon tiliga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirmoqda.

O‘z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, iqtidorli talabalarimizdan biri Visola Shuhratova nafaqat yapon tili bilan, balki ma’naviy-ma’rifiy hamda ilmiy sohalarda ham yutuqlarga erishib kelmoqda. Bundan tashqari, uning yapon tili yo‘nalishi bo‘yicha hammualliflikdagi 3 ta uslubiy qo‘llanmasi nashrdan chiqarildi. “Yapon tili o‘rta darajasini o‘rganamiz”, “Men kashf qilgan Yaponiya” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari yapon tilining o‘rta darajasini o‘rganuvchilar, asosan 2- va 3-bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan.

Davomi 3-betda

## MAGNIT BO‘RONLARI: BU QIYIN DAVRDAN QANDAY QILIB OSONROQ O‘TISH MUMKIN?

2022-yil 10-iyundan boshlab kuchli magnit bo‘ronlari Yerni silkitadi. Magnit bo‘ronlar 18-iyun kuni kechgacha davom etadi. Bu davrda ularning tebranishlari 3 balldan 4 ballgacha o‘zgarib turadi. Bunday faoliyat salbiy hisoblanib, odamlarda ob-havo tufayli paydo bo‘ladigan alomatlarni kuchaytiradi va ularga juda ko‘p muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur davr mobaynida meteorologlar, keksa fuqarolar va surunkali kasalliklari bo‘lgan odamlar quyidagi alomatlarni his qilishadi: qon bosimining ko‘tarilishi, migren, asablarning charchashi, qattiq charchash, befarqlik, uyqusizlik, qo‘rquv, kardiopalmus, kayfiyatning tushishi kabilar shular jumlasidandir.

2022-yilning 20-iyun kunidan 22-iyun kunigacha magnitosfera tinch bo‘ladi, shuning uchun ob-havo tufayli ba’zi alomatlari paydo bo‘ladigan odamlar biroz dam oladi. Bo‘ronlarning keyingi bosqichi 23-iyun kuni boshlanadi va 25-iyun kuni tugaydi. Bu vaqt ichida magnit bo‘ronlarining ta'sir kuchi 5 ballga yetadi. Bu holat har bir insonga ta’sir ko‘rsatadigan eng kuchli magnit bo‘ron bo‘ladi.

Ma’lumki, magnit bo‘ronlari nafaqat meteorologlarga, balki sog‘lom odamlarga, hayvonlarga va hatto maishiy texnikaga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ba’zi qurilmalar noto‘g‘ri ishlashi yoki hatto ishlamay qolishi mumkin. Hayvonlarga kelsak, ular stress va og‘riqni boshdan kechirishlari mumkin. Ularga bu vaqtni osonroq o‘tkazishga yordam



berish uchun siz ularga qulayroq sharoitlarni yaratishingiz kerak.

Magnit bo‘roni paytida o‘zingiz va boshqalarga qanday yordam berish kerak? Tibbiyot xodimlari magnit bo‘ronlari davrida o‘z sog‘ligiga ko‘proq e’tibor berishni va ob-havoga bog‘liq muammolarni yengishga yordam beradigan quyidagi tavsiyalarga amal qilishni maslahat berishadi: ko‘proq dam olish va kamroq kuch sarflash, meva va sabzavotlardan ko‘proq iste’mol qilish, ko‘proq suv ichish, kuchli qahva va choy iste’molini kamaytirish, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilmaslik, stressli vaziyatlardan, nizolardan qochish kabilar.

Surunkali kasalliklarga chalingan odamlar, shuningdek, muntazam ravishda qon bosimini o‘lchashlari va kerak bo‘lganda, tegishli dori-darmonlarni iste’mol qilishlari kerak. Ushbu davrda avtomobil haydashni kamaytirish tavsiya etiladi, chunki baxtsiz hodisalar xavfi ortadi.

# ILMIY TADQIQOTCHILAR BILAN OCHIQ MULOQOT O'TKAZILDI

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son farmoniga ko'ra mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'ligini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratildi.

Bu borada bugungi kunda Samarqand davlat chet tillar institutida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Hozirda institutda professor-o'qituvchilar soni 534 nafarni tashkil etadi. Shundan 130 nafar professor-o'qituvchilar ilmiy darajaga ega. Jumladan, 26 nafar fan doktori, 104 nafar fan nomzodi. Ilmiy salohiyat 24,4 % ni tashkil etadi.

So'nggi 2 yilda 8 nafar fan doktori (DSc) va 52 nafar falsafa doktori (PhD) tayyorlandi. Samarqand davlat chet tillar institutida ilm-fan va innovatsiyalarni 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlariga ko'ra 2026-yilgacha himoya ko'rsatkichlarini yiliga 6 nafar fan doktori, 35 nafar falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja olishga erishish ko'zda tutilgan.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limda tahsil olayotgan doktorantlarni o'z vaqtida himoya qilishni 90 % ga erishtirish maqsad qilingan. Bugungi kunda bu ko'rsatkichni 50% dan oshirish rejalashtirilgan (7 nafardan 2 nafar tayanch doktorant muddatdan oldin himoya qilib diplom olgan yana 2 nafari Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminardan o'tgan, 1 nafari hujjatlarini ilmiy seminarga topshirgan. Shuningdek, 1 nafar 2-bosqich tayanch doktorant hujjatlarini ilmiy seminarga topshirgan).

2026-yilgacha ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushida 39 yoshgacha bo'lganlar sonini 50 % gacha oshirish (bugungi kunda 30%) maqsad qilingan.

Institutda 5 ta yo'nalish bo'yicha ilmiy maktablar mavjud.

Ushbu ilmiy maktablarda 10 ta ixtisoslik bo'yicha 33 nafar doktorantlar (2 nafari muddatdan oldin himoya qildi) (3 nafari tug'ruq ta'tilda)

1 bosqichda 17 nafar (PhD),

2 bosqichda 5 nafar (PhD),

3 bosqichda 5 nafar (PhD) va

4 nafar maqsadli tayanch doktorantlar tahsil olmoqda.

Doktorantlar (DSc) soni:

1 bosqichda 1 nafar (DSc),

2 bosqichda 1 nafar (DSc),

3 bosqichda 1 nafar (DSc),

4 nafar stajyor-tadqiqotchi va 186 nafar mustaqil izlanuvchilar doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabulni 2026-yilgacha bosqichma bosqich oshirib 100 nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Ixtisosliklar sonini va ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlarning sonini ham oshirish ko'zlangan.

Institutda ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchilar muntazam moddiy rag'batlantirilib va ma'naviy rivojlantirilib kelinmoqda.

Institutda bugungi kunda 5 ta ilmiy jurnal faoliyat olib bormoqda, shundan 2 tasi OAK e'tirof etgan nashr hisoblanadi "Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim" va "So'z san'ati" elektron ilmiy jurnali shular jumlasidandir. Ushbu jurnal joriy yilda Sjifactor tomonidan Impakt faktor olishga erishildi.

Institutda PhD.29.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda institutda ilmiy tadqiqotchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizimi mavjud.

Institutda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilarga ilmiy daraja olganligi to'g'risidagi diplomni olgandan keyin ularga zamonaviy kompyuter, ilmiy rahbarlarga bir martalik moddiy rag'bat berilib kelinmoqda. Bugungi kungacha 50 ga yaqin tadqiqotchi zamonaviy kompyuter bilan taqdirlandi.

Shuning bilan birga ilmiy unvon olgan xodimlar ham qimmatbaho mobil telefonlari bilan rag'batlantirilib kelinmoqda.



**SamDCHTI Axborot xizmati**

# OLIY TA'LIM HAMDA MAKTAB HAMKORLIGI



So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba-yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari bilan ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik integratsiyasini, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida ham qator vazifalar belgilab berildi.

Unda ko'rsatilgan vazifalar ijrosi yuzasidan Samarqand davlat chet tillar institutida ham tizimli ishlar qilindi hamda Samarqand viloyatidagi umumta'lim maktablari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Xususan, Samarqand davlat chet tillar instituti faoliyat yuritayotgan tajribali professor-o'qituvchilar viloyatdagi qator umumta'lim maktablarida amaliy-metodik ko'mak berish uchun biriktirildi. Bunga Past Darg'om tuman Xalq ta'lim bo'limiga qarashli 122-umumta'lim maktabi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlarni misol qilishimiz mumkin.

Ushbu maktabga uslubiy yordam ko'rsatish uchun Samarqand davlat chet tillar institutining "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi professor-o'qituvchilari mas'ul etib tayinlangan. 2020/2021 o'quv yili va 2021/2022 o'quv yili mobaynida kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan doimiy hamkorlik faoliyati olib borilib, "Meni kasbga yo'naltirdi muallim" tanlov dasturi asosida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Kafedra mudiri A.Saidov tomonidan tadbir davomida yig'ilganlarga maktab pedagog jamosi bilan metodik hamkorlik borasida qilinadigan ishlar xususida tushunchalar berib o'tildi. Maktab bitiruvchi o'quvchilarini oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkich foizini ko'paytirish borasida maktabda fan to'garaklarini tashkil qilib, har bir o'quvchi bilan individual ishlash choralarini ko'rish kerakligi, bu borada metodik jihatdan Samarqand davlat chet tillar instituti professor-o'qituvchilari doim hamkorlik qilishga tayyor ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, institut rektori I.To'xtasinov tomonidan 122-maktab bitiruvchilariga qulay imkoniyatlar yaratish, bilim salohiyatini yanada oshirish maqsadida ingliz tili fanidan o'quv adabiyotlari va darsliklar tuhfa qilindi. Kafedra o'qituvchilari M.Nurmatova, Sh.Mardiyeva, F.Po'latova, O.Yodgorova va S.Shodiyevalar tomonidan maktabning 10-, 11-sinf o'quvchilarining fanlar kesimida bilimini aniqlash maqsadida doimiy ravishda sinov testlari o'tkazilib, natijalari maktabning jonli devoriga taqdim etilmoqda. Bundan tashqari, institutning Ingliz tili II fakulteti dekani o'rinbosari Q.Hakimov ushbu amalga oshirilayotgan ishlarga yuksak bilimi, salohiyati, katta tajribasi orqali o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Shuningdek, institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi Sh.Mardiyeva tomonidan maktabda o'quvchilarga psixologik yordam beruvchi "Tuyulgan musht" nomli trening o'tkazildi va bu trening orqali bir-birlaridan xafa bo'lib qolgan o'quvchilar o'rtasida iliqlik muhitini yaratishga erishildi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi O.Yodgorova o'zining "Molekula" nomli treningini tashkil etib, o'quvchilarda ko'tarinki kayfiyat paydo bo'lishiga erishdi. O'qituvchi F.Po'latova ham "Sher, ovchi va ovchining ayoli" nomli trening tashkil etdi. Natijada o'quvchilarda jamoaviy fikrlash, bir-birlariga ko'maklashish, mehr-oqibat tuyg'usini his qilishlariga yordam berildi. Psixologik treninglar o'quvchilarni o'qishga bo'lgan shijoatlarini yanada yuqoriga ko'tarishga va o'zlariga bo'lgan ishonchini yuksaltirishga yaqindan yordam beradi.

Psixologik treninglar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar juda qizg'in va ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi va o'quvchilar tomonidan berilgan savollar atroflicha muhokama etildi. Unda faol ishtirok etgan ishtirokchilarga qimmatbaho sovg'alar hamda kitoblar jamlanmalari sovg'a qilindi.

**Shahnoza MARDIYEVA,**
**SamDCHTI o'qituvchisi.**

# MALIKANING KO'Z YOSHLARI

U oy desa oyday, kun desa kunday husni bor chiroyli qiz edi. Ismi jismiga monandligini aytmaysizmi, Malika!

Malika kollejni tugatib, oliygohda o'qishni, muallima bo'lishni maqsad qilgan edi. Lekin onasi yo'l bermadi: "Yonimda yurganing ma'qul" dedi. Ona roziligini olmasdan o'zga chorasi yo'q. Malika akasining yordami bilan o'ziga munosib ish topdi. Hayot o'z tashvish-u muammolari bilan davom etaverdi. Yoz kunlarining birida Malikalarnikiga sovchi keldi. Qo'shni qishloqda yashaydigan Sojida opa Malikani ko'z ostiga olib qo'ygan ekan. Sovchi ayol birinchi kelganidan qiz bilan yigitning yulduzi yulduziga to'g'ri kelganini, bo'lajak qudalarning boy-badavlatligi-yu qo'sha-qo'sha uy-joylari, yengil avtomashinalari borligini aytgan bo'lsa, keyingi safar qiz tomondagilarning roziligini olib ketdi.

O'g'il uylantirgan, kelin olgan, qizlarini turmushga chiqargan ona bo'lajak kuyovning yurish-turishini, qo'lida hunari bor yoki yo'qligini so'rab surishtirishni o'ziga munosib ko'rmadi. Yaqin qarindoshlarning maslahatiga quloq solmadi. Malika onasiga hali beri turmushga chiqmasligini aytib yig'ladi, yalindi, yolvordi. Biroq ona qizlarning odati shu, deya to'yga tayyorgarlikni boshlab yubordi.

Malika bu to'yga noiloj rozi bo'ldi. To'y ham chiroyli tarzda o'tdi. Malika endi o'z ota uyini tashlab boshqa bir xonadonga kelin bo'lib bordi. Boshida Malika yaxshi yashay boshladi. Bir necha oydan so'ng ularning oilalarida kelishmovchilik yuzaga kela boshladi. Malika juda yosh bo'lgani uchun ko'p uy ro'zg'or yumushlarini ko'ngildagidek qila olmas edi. Bundan esa qaynanasining jahli chiqar edi. Qaynanasi ham bir ikki indamadi. Oxiri Malikaga: "Kelin, siz men aytgan ishlarni ko'nglimdagidek qila olmayapsiz, meni ranjityapsiz" – dedi. Malika esa "Shu oyda nimagadir ko'nglim ayniyapti, ishtaham yo'q"– deb javob berdi. Qaynanasi: "Hammasi yaxshi bo'ladi, siz xavotir olmang" – dedi-da, indamay qo'ydi.

Kunlarning birida Malika qaynanasiga mazasi bo'lmayotganini aytdi. Qaynanasi kelinini shifokorga ko'rsatdi. Shifokor ularga juda kech murojaat qilishganini, kelinining homilasi nobud bo'lganini aytib xonadan chiqib ketdi.



Malika qaynanasi bilan uyga qaytdi. Bir necha oydan so'ng Malika yana bo'yida bo'lganini suyunib qaynanasi va turmush o'rtog'iga aytdi. Ular bu xabarni eshitib xursand bo'ldi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Malikaning tobi qochdi. Shifokorga borishganda bu farzand ham nobud bo'lgani, tezda jarrohlik yo'li bilan olib tashlash kerakligini aytdi. Malika nima qilishni bilmay tushkunlikka tushdi. Biroz vaqtdan so'ng turmush o'rtog'ini chaqirishdi. Rafiqasining boshqa farzand ko'ra olmasligini eshitgan Jasurning hayolini "Nahotki men bu dunyodan farzandsiz o'tsam?!" degan savol tark etmas edi. Jasur va Malika uyga qaytgach, Jasur bor gapni onasiga aytib berdi. Onasi bu gapni eshitgach: "Bo'ldi, Malika bilan endi ajrashasan. Bizga farzand ko'ra olmaydigan kelinning keragi yo'q. Men nevara ko'rishni istayman. Avlodimiz davomchisi bo'lishi kerak. Bizga tug'mas kelin kerak emas"– dedi. Bu gaplarni Malika to'satdan eshitib qoldi. Kelini yolvorib kechirim so'rasa ham qaynanasi: "O'g'limga onasi o'pmaganidan olib beraman" – deya uni haydab soldi. Malika yig'lab onasiga bor gapni aytdi. Onasi bu gaplarni ko'tara olmay betob bo'lib qoldi. Shunda qarindoshlari qizini erta turmushga berib katta xato qilganini aytishdi. Onasi Malikaga: "Meni kechir, qizim. Sening shu ahvolga tushishingga men sabab bo'ldim. Badbaxt onangni kechir, jon qizim!" – deya bu yorug' olamdan ko'z yumdi. Onasining vafotidan so'ng Malikaning hayotga bo'lgan qiziqishi so'ndi. Har kuni dard-alam bilan ko'z yosh qilib o'tirar edi. Chunki Malika hayotda ko'plab sinovlarni boshidan o'tkazdi.

Hikoyadan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shoshma-shosharlik bilan qizining taqdirini o'ylamasdan, uning orzusini amalga oshirishiga yordam bermasdan, erta turmushga uzatishganini uchun mana shu holatlar kuzatildi.

**Asilbek ABDURAZZOQOV,**
**SamDCHTI Ingliz tili II fakulteti talabasi.**

# 25 BITIRUVCHIGA 25 KITOB

Nurobod tumanidagi 33-umumta'lim maktabini joriy o'quv yilida 25 nafar yigit-qizlar bitirishmoqda. Maktab rahbariyatining ma'lum qilishicha, o'tgan yili 21 nafar bitiruvchidan 8 nafari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan. Bu yil esa, ularning 20 nafarga yaqini talaba bo'lish istagida ekan. Ustozlarining aytishicha, ayni kunda shu mavzuda ko'plab muloqotlar tashkil etilmoqda.

Navbatdagi muloqot oliy ta'lim muassasasi mutasaddilari bilan bo'lib o'tdi. Ayni kunda Samarqand Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti Nurobod tumanidagi 17-umumta'lim maktablari bilan hamkorlik qilmoqda. Universitet prorektori, Qishloq xo'jalik fanlari doktori, dotsent Abdug'ani Elmurodov mazkur maktabning 25 nafar bitiruvchisining har biriga o'z shaxsiy jamg'armalari hisobidan 25 dona kitob sovg'a qildi. Mazkur kitoblar so'nggi yillar ichida chop etilgan yangi, eng o'qishli va foydali deb topilgan zamonaviy badiiy adabiyotlardir.

Uchrashuvda tuman hokimiyati va mahalla vakillari ham ishtirok etishdi. Muloqot davomida yoshlarning kelajak orzulari, qaysi kasbni tanlashlari va buning uchun qaysi oliy ta'lim muassasalarida o'qishi zarurligi haqida suhbat bo'ldi. Shuningdek, proroktor Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti qanday mutaxassis-kadrlar tayyorlashi haqida yoshlarga ma'lumot berdi.

Ahamiyatlisi, bitiruvchi-yoshlar bir narsaga kelishib olishdi – taqdim etilgan kitoblar almashinib o'qiladi. Shunda har bir yosh 25 ta kitobni o'qib chiqqan bo'ladi. Kitob o'qigan, bilimli va iqdidorli yoshlar esa hayotda hech ham qiynalmasdan o'z o'rniga ega bo'ladi. Shuningdek, ular yaxshi mutaxassis ham bo'lishadi.

**SamDVMCHBU Axborot xizmati**

# FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TILNING BOYITISH MANBAIDIR

Yozuvchilar o'z asar qahramonlarining tashqi qiyofasi bilan birga ma'naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham o'quvchilarga ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlab berish maqsadida frazemalardan unumli foydalanadilar. Ayni paytda, ular frazemalarni aynan o'zidan foydalanish bilan birgalikda qisman o'zgartirib yoki butunlay yangi individual-muallif frazemalarni ham yaratishlari ham mumkin. Tilshunoslikda "struktural o'zgarishlar", "formal o'zgarishlar", "frazeologik transpozitsiya", "leksik qayta shakllanish" kabi terminlar frazeologizmlarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari bilan aloqadordir. Bizningcha, frazemalar transformatsiyasi termini frazemalardagi o'zgarishlarni to'liq qamrab oladi.

O'zbek tilida frazemalar transformatsiyasining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

Frazema tarkibidagi muayyan so'zlarni almashtirish – tilning rivojlanish bosqichida frazemalar tarkibidagi u yoki bu komponent faol ifoda qiluvchi yangi leksemalarga almashtirilishi mumkin. Masalan, "put someone in an awkword postion" frazemasidagi an awkword postion komponenti qo'llanmasligi tufayli on the spot leksemasi bilan almashtirilgan, natijada "put some on the spot" shaklidagi yangi frazema hosil bo'lgan. "Noqulay ahvolga solmoq, uyatga qo'ymoq, xijolatga solmoq". Ushbu gapda "put someone in an awkword postion" iborasining ijodiy o'zgartirilganligini ko'rish mumkin. "Awkword postion" so'zi o'rniga "on the spot" so'zini qo'llagan. Yozuvchi bu ibora orqali ayrim kishilarning boshliqlarni qiyin, uyatli ahvolga olib kelish holatini kinoya bilan ifodalaydi.

Tilimizning bebaho boyligi hisoblanmish frazeologizmlar keng uslubiy va shakllanish imkoniyatiga ega bo'lib, ular mohir yozuvchilar qo'lida har gal o'zgacha yangi emotsional bo'yoqdorlikni kasb eta oladi va o'z ta'sir kuchini yanada kengaytira oladi.

Mahoratli so'z san'atkorlari iboralardan mohirlik bilan stilistik maqsadlarda qo'llashda ularning ma'nolarini yangilashga, uslubiy imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qiladilar. Ular nafaqat tilimizdagi frazeologizmlardan foydalanadilar, balki shular asosida yangi frazeologizmlarni yaratib frazeologiya fondini boyitishga munosib hissalarini ham qo'shadilar. Bu jarayon umumtildagi iboralarning leksik tarkibini o'zgartirishi, ularning ma'no va stilistik vazifalarini oshirish uchun turli til qonun-qoidalaridan hosil qilishi mumkin. Bu tilimizning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Frazeologizmlar keng uslubiy va shakllanish imkoniyatiga ega. Stilistik maqsadlarda qo'llash ularning ma'nolarini yangilashga, uslubiy imkoniyatni kengaytirishga xizmat qiladi. Frazema tarkibidagi muayyan so'zlarni almashtirish tilning rivojlanish bosqichida frazemalar tarkibidagi u yoki bu komponent ifoda qiluvchi yangi leksemalarga almashtirilishi mumkin.

Iboralar ingliz tilini o'rganuvchilar uchun kerakligi ma'lum bo'lsa-da, ammo o'rta maktab darsliklarida deyarli uchramaydi. Maktab darsliklarida frazeologik birliklarni kiritish tavsiya etiladi. Bu esa o'quvchilarning ingliz tilidagi bilim ko'nikmalarini oshirishga munosib hissa qo'sha oladi.

**Baxora NAPASOVA,**
**Samarqand tumani 31-maktab ingliz tili o'qituvchisi.**

# SAID AHMAD – O'ZBEK ADABIYOTINING YORQIN NAMOYONDASI

Said Ahmad – o'zbek adabiyotining atoqli adiblaridan biridir. Bo'lajak yozuvchining bolaligi Toshkentda Elbek, G'afur G'ulom, Oybek kabi yozuvchi va shoirlar davrasida o'tgan va bu uning yozuvchi bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Said Ahmad 1920-yil 10-iyunda Toshkent shahri "Samarqand darvoza" mahallasida, o'z davrining obro'li insonlaridan bo'lgan Husanxo'ja Dadaxo'jayev oilasida dunyoga keldi. Yosh Said Ahmad o'zini turli sohalarda, ya'ni rassomlik, artistlik, fotografik, qurilish va hatto doktorlikda ham sinab ko'radi. Biroq adabiyotni tanlaydi.



1941-yilda Nizomiy nomidagi pedagogika institutini tamomlaydi va "Mushtum" jurnalida ishlay boshlaydi. Keyinchalik "Qizil O'zbekiston", "Sharq yulduzi" kabi gazeta-jurnallarda turli lavozimlarda faoliyat olib boradi.

1940-yilda birinchi muallliflik hikoyalar to'plami "Tortiq" nomi bilan nashr etiladi. Uning "Cho'l burguti", "Lochin", "Bo'ston", "To'yboshi", "Odam bo'ri" kabi hikoyalari o'zbek adabiyotida yangilik ruhini olib kirgan. Adib hajvchi yozuvchi sifatida bir qator hikoyalar yozdi va shu bilan o'zbek radio va televideniyesida miniatyura teatriga asos soldi.

Said Ahmad hajviy hikoyalarida taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan yaramas urf-odatlar ustidan kuladi, yangicha ma'naviy-axloqiy masalalarni o'rtaga qo'yadi. Aksincha, o'zbek psixologiyasiga singmaydigan, milliylikdan yiroq bevatan, bemillat, yangicha urf-odatlar, udumlar ustidan ham qahqaha otib kuladi. "Xandon pista", "Bir o'pichning bahosi", "Xanka va Tanka" hikoyalari shular jumlasidandir.

Yozuvchining "Yo'qotganlarim va topganlarim" xotiralari o'zbek adabiyoti uchun qimmatli asar hisoblanadi. Kitobda bir qator yozuvchi va shoirlarning shaxsi va ijodiga chizgilar bitilgan. Jumladan, yozuvchi asarda G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Turob To'la, Saida Zunnunova haqida xotiralari bilan bo'lishsa, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, O'tkir Hoshimov, Ne'mat Aminov singari o'zbek adabiyoti yorqin adiblarining hayoti va ijodidan qiziqarli ma'lumotlarni so'zlab beradi.

1964-yilda yaratilgan "Ufq" romani yozuvchi ijodiy yo'lidagi ikkinchi bosqichning eng katta yutug'i bo'ldi. Bu roman trilogiya bo'lib "Qirq besh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida" nomli qismlardan iborat. Unda ijodkor qishloq kishilarining urush yillarida front orqasida ko'rsatgan mehnati, qahramonliklari, o'zbek xalqiga xos bag'ri kenglik va oriyatlilik, fidoyilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni aks ettirgan. Romanda yozuvchi xalqimiz turmushining uch muhim sanalari bilan bog'liq bo'lgan davrni qalamga olgan. Ushbu davrlarda yashagan xalqimizning turmush tarzi, orzu-o'ylari va dardlarini aks ettirish bilan bir qatorda o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odatlar va o'zbek xarakterini jonli bo'yoqlarda go'zal tasvirlagan.

Said Ahmadning ko'pgina asarlari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Said Ahmad nasrnavis va dramaturg, o'zbek adabiyotida kichik nasr-hikoya ustasi sifatida tanilgan. Uning ko'plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Mislsiz xizmatlari uchun Said Ahmad "Buyuk xizmatlari uchun" va "Do'stlik" ordenlari hamda "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston xalq yozuvchisi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" sharafli unvonlariga sazovor bo'lgan.

Said Ahmadning rafiqasi Saida Zunnunova ham o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi hisoblanadi. 2013-yil 10-iyun kuni Toshkent shahridagi O'zbekiston Milliy bog'ida Said Ahmad hamda Saida Zunnunovalarning haykallari o'rnatildi.

**Chexrangiz ASADOVA,**
**SamDCHTI o'qituvchisi.**

# NAVOIY (NOVEL)

## ILK BOR O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA

ILHOMJON TO‘XTASINOV, SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI REKTORI, PROFESSOR

***(Davomi. Boshlanishi oldingi sonlarda)***

Since his retirement Majididdin felt as if someone broke down the backboard support of him. Meeting with people he still tried to stay proud and with dignity, but this pride has been artificial. Today, however, Majididdin was very cheerful. Through his people who informed him of any new event that takes place at the yard, Majididdin learned about imprisonment of Darveshali. This gave his heart the hope that the mercy of the sultan would return to him.

Leaning on a large feather pillow, the former vizier said that two days later he would leave to meet the Sultan, who returns from a trip, without having achieved anything.

– The Beks who accompanied the Sultan were the bad soldiers, – Togonbek said scornfully. – The fortress in Hisar, however, is strongly fortified, but they still should take and teach good Sultan Mahmud.

Majididdin was pleased that the sultan returned from a trip with nothing. He was afraid that if Husayn Boyqaro had victory and was flushed with success, he can change his attitude to Alisher and his brother. So he agreed in his soul with respect to the conquest by Togonbek Hisar’s fortresses, but did not contradict him. He asked Togonbek to establish friendship and trust between Khadichabegim and Nizomumulk. Togonbek’s small eyes narrowed, as if trying to remember something.

– No, – he said, – we do not know about it. However, the sons of Nizomumulk are attempting to strengthen relations with Muzaffar Mirza.

– What are you talking about, my friend! – straightened Majididdin. – Do you understand how dangerous is this friendship for us, the sons of Nizomumulk with the sultan's favorite son?

– We’ll wash this danger with wine, – Togonbek laughed.

– What steps are you going to take, lord?

– We will try to embroil them with wine. Majididdin calmed, Togonbek said bye and left.

Two days later, Majididdin with the prince, the vizier, lords and other high–ranking officials, as usual left to meet the Sultan. In two passages from the town they stopped in a large, well–located camp. They met here and spent the night. Various dishes were cooked in large boilers.

In the morning captains rushed to the foaming horses and shouted:

– Sultan rides!

Hurriedly straightened their clothes and mounted their horses. Soon there were the personal servants of the Sultan and said:

– Sultan is close!

Finally, in the distance, over the undulating ridges of the hills, as if fused with the cloudy sky, clouds of dust swirled.

Riders on horses froze. Coney was restlessly turning his head, gnawing at the bit, and the worst of them started kicking. Dust approached, blanketing the air, but their eyes fixed on the road to more clearly distinguish the outlines of people and riders. Anxious anticipation reached its limit. Sultan Husayn, surrounded by lords and personal retinue, was approaching the venue, kept his horse and stopped at thirty–forty paces from the crowd. Those standing in front of the princes came to the sultan and kneeled down, respectfully kissed his outstretched hand. Then they approached the Sultan princes. But their hands were not for everyone. Of the hundreds of nobles, who went to meet them, this honour went to a few, to shake hands was considered a special token of the Sultan.

Following the warlords and nobles Majididdin with a low bow approached to Husayn. But his eyes were eagerly seeking the unseen hands of the Sultan. As if struck by lightning, Majididdin mumbled something about "sacred beauty" to the sovereign and staggered, then stepped aside. He barely climbed onto his horse. Not looking at the former vizier, Husayn Boyqaro drove past.

Among those who accompanied the sultan, Majididdin saw the sad, silent Alisher. He shook hands with confusion and the poet, joining a string of riders went after the sultan.

In the evening, tired and frustrated, he returned home and locked himself in the room. For few days the former vizier did not leave the house, he finally decided to come to the sultan. Dressed as best as possible, Majididdin went to the palace. There he met Eshikoga Boboali and a few nobles and begged them to obtain permission for his reception by the Sultan. Courtiers of pity agreed to fulfill his request.

In anticipation, when the Sultan deigned to accept it, Majididdin walked slowly beside the couch. Garden Jahon oro, as before, lived a carefree life of luxury. With great pride and importance, he was there when he walked, then – the governor and vizier of Sultan! Then the corner of his eye he did not look at the crowd in the garden of the Beks...

It took quite a long time. Finally, Boboali appeared and said that his desire, unfortunately, cannot be executed. Unable to overwhelm him, Majididdin blushed and then turned pale. Ridicule, which he read in the eyes of Boboali, pricked him like a dagger.

Coming out of the palace, Majididdin went to Togonbek. In a small courtyard surrounded by magnificent buildings, life was seething: well–dressed servants scurried and horsemen were armed with swords and expensive daggers.

Togonbek as always met Majididdin friendly. The former vizier began to complain about the cruelty of the sovereign. Togonbek heard from people about the true discontent of Husayn Boyqaro by Majididdin caused by Nizomumulk and began the most nasty curse words of vizier. Majididdin sighed.

– I offered him my hand to heaven and now he seems to have gone to hell, – he said.

Majididdin admitted to Togonbek, that he decided to turn to mediation of Barlos and his son to somehow get to the sultan. Togonbek approved the plan.

– They must have something in it to exterminate, – said Togonbek.

– Of course, promise them ten thousand dinars.

– To go? Me? – asked Togonbek.

– If I go, it would cause suspicion,

– said Majididdin. – Are you on good terms with the father and son Barlos? Except you, I do not rely on anyone. My friends can now be counted on one hand, and yes, they will be afraid to stand up for me.

Togonbek promised to meet with Shujoiddin Muhammad Barlos and his father today.

Majididdin spent days in anxiety and impatience, but a few months before he had received good news from Barlos.

On the appointed day for the reception of Majididdin Barlos came to the palace and was easily admitted by the sultan.

Husayn Boyqaro sitting relaxed on the throne met him, if not with the same attention, but at least friendly. Majididdin in the strongest terms spoke of his love and devotion. On post, the service he had not said a word, but mentioned several times that he considers himself to be the pride of his faithful dog in the sovereign’s palace.

After that, he offered as a gift to the Sultan twenty thousand dinars and received permission to retire. The world again seemed to him bright. Eager to celebrate the happy day, Majididdin ran home.

Nizomumulk regained his former greatness. The Sultan himself once called him "a priceless pearl of the state." To preserve his power until the end of life, it was necessary to eliminate all his enemies, of which the most dangerous vizier was considered Majididdin. Therefore, hearing that Majididdin was received by the Sultan, Nizomumulk ran to the couch and under the pretext of the report went to Husayn Boyqaro. The Sultan immediately spoke about Majididdin, referring to the gift received from him. Nizomumulk winced.

– Twenty thousand dinars? Not very generous for the former vizier! If he gave ten times more on the tablecloth it would not be less than crumbs.

– You're not exaggerating? – asked in surprise Husayn Boyqaro.

– Not at all, – said Nizomumulk.

– All know about his wealth without exception.

– Where did they come from? – the state concerned.

– Without any exaggeration: half of the money received from the people, got into your coffers, the other half – in the treasury of Majididdin.

Husayn Boyqaro looked suspiciously at his vizier and said that Majididdin was received at the request of Barlos. Seizing the opportunity, Nizomumulk decided to remove from his path Barlos as well.

– I consider it my duty to enlighten his majesty Khakan the terrible crime – he said, bowing to the Sultan and his big body. When your ladyship went camping at Kunduz, Barlos and his son Shujoiddin Muhammad said: "If the sultan is defeated, we'll put on the throne of Prince Uveys Mirza and his faithful servants."

Husayn Boyqaro jumped as if stung. He quickly stood up and shouted, trembling with rage:

– Ungrateful father and son and put Majididdin immediately to jail! Call people!




Nizomumulk immediately brought people who knew how to grab and interrogate state criminals and rob their home. Husayn Boyqaro personally gave them orders. When they left, the Sultan sent for the Emir Ali Atke, a cruel and rude person, and instructed him to bring to the palace all property of Majididdin.

When large chests filled with gold, silver, rubies, pearls and other jewels were taken to the palace Sultan shook his head in amazement. On piles of Indian, Chinese, Egyptian fabrics, carpets, silk and other rarities he had not even seen before.

– Expose him to torture and then get his hoarded wealth in your hands, – in a sly smile whispered Nizomumulk to the Sultan.

Emir Ali Atke respectfully approached to the sultan.

***(Davomi keyingi sonda)***

## PSIXOLOGIK TRENINGLAR TALABA-YOSHLARGA NIMA BERADI?



***Sizga orzular ro‘yobga chiqmaydi desalar, ishonmang, orzularga kurashish va harakat bilan erishish mumkin.***

Hozirgi kunda hayotimizda ba’zida juda ham agressiv yoki tushkunlikka tushib qolgan insonlarni ko‘rishimiz mumkin. Hayotimizda yuzaga kelayotgan turli xil qiyinchiliklar va ziddiyatli vaziyatlar oldimizga qo‘ygan maqsadimizga erishishimiz uchun to‘siq bo‘lishi mumkin. Psixologik treninglar esa inson ruhiy holatini yaxshilashga, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam bera oladigan psixologik mashg‘ulotlardir. Shuningdek, psixologik treninglar har bir insonni oldiga qo‘ygan maqsadi hamda orzulariga erishishi uchun yo‘l ochadi desak, mubolag‘a emas.

Samarqand davlat chet tillar institutida "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o‘qituvchilari tomonidan institut talabalarining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiruvchi, o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishga yordam beruvchi turli xil psixologik treninglar o‘tkazilib kelinmoqda. Oliy ta’lim tizimining murakkabligi, fanlarning xilma-xilligi va hayotning boshqa turli xil tashvishlari talabalarni nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan toliqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Psixologik treninglar talabalardagi ruhiy zo‘riqishlarni, kichik stresslar va affekt holatlarning oldini oluvchi hamda bartaraf etishga yordam beruvchi, shuningdek, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiruvchi turli xil psixologik mashg‘ulotlar. Bu kabi treninglarning oliy ta’lim tizimida tahsil oluvchi talala-yoshlar o‘rtasida o‘tkazilishi zamon talabidir.

Ko‘pgina talabalar o‘qish faoliyati davomida duch kelayotgan qiyinchiliklar, atrof-muhit bilan munosabatga kirishishda yuzaga kelayotgan ko‘ngilsiz xatti-harakatlardan ruhiy siqilishni yoki “psixologik yonish”ni boshidan o‘tkazadi. Ana shunday vaziyatda talaba o‘zini turli xil narsalar bilan chalg‘itishga harakat qiladi. Ko‘pchilik talabalar esa ruhiy zo‘riqish yoki stresslardan chiqib ketish yo‘llarini bilmaydi.

Aynan mana shunday vaziyatda talaba ruhiy ko‘makka muhtoj bo‘ladi. Surunkali ruhiy taranglik esa sog‘lik uchun juda xavfli va psixosomatik kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Psixologik treninglarda stressli holatlarni bartaraf etish bo‘yicha "Xayr stress" kabi amaliy mashqlar, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish bo‘yicha mashg‘ulotlar, alamzadalikni yengish mashqlari, emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni va xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishga yordam beruvchi “Hissiyotlar ro‘yxati” kabi mashg‘ulotlar kafedraning malakali psixolog o‘qituvchilari tomonidan o‘tkazilib kelinmoqda.

Bundan tashqari talabalarga nafaqat ruhiy zo‘riqishlarni yengish, balki oldini olish maqsadida turli tavsiyalar berilib boriladi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, stressning oldini oluvchi birinchi qadami – bu erishilsa, bo‘ladigan maqsadlar qo‘yish ekanligidir. Masalan, «Men ideal bo‘lishim kerak», «Dunyo menga nisbatan doimo adolatli bo‘lishi kerak» kabi fikrlardan yiroq bo‘lish, shuningdek, «Agar reja tuzib chiqsam, men hammasini uddalayman», «Men buni bosqichma-bosqich amalga oshiraman», «Agar uddasidan chiqa olmasam, barchasini boshqatdan boshlayman» kabi fikrlarga yaqinroq bo‘lish kabilardir.

O‘z-o‘ziga yordam harakati asoschilaridan biri mashhur psixolog Luiza Xeyning "Ruhiy salomatligingizni yemirayotgan alamzadalikdan qutulganingizga amin bo‘lsangiz, bu hayot naqadar go‘zal, yashash esa totliligini tushunasiz" deya ta’kidlagan so‘zlari fikrimizning yorqin dalilidir. Psixologik treninglar esa talabalarga ana shunday totli hayot qadrini bilishni, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirib borish va ruhiy zo‘riqishlardan oson chiqish imkoniyatlarini yaratadi.

**Ozoda YODGOROVA,**
**SamDCHTI o‘qituvchisi.**

## TA´LIMGA QARATILGAN E´TIBOR SAMARASINI BERMAY QOLMAYDI

***Boshlanishi 1-betda***

“Yaponiya madaniyati” nomli qo‘llanmasi esa qiziqarliligi, ma’lumotlarga boy ekanligi, yapon madaniyatini yorqin rasmlar bilan ko‘rsatib berilganligi, ahamiyatlisi, barcha yapon tiliga qiziquvchilar uchun ham mo‘ljallanganligi bilan ajralib turadi.

Ta’kidlash joiz, 2022-yil 1-mart kunida institutda 24-marotaba bo‘lib o‘tgan “Yapon tili notiqlik san’ati” ko‘rik-tanlovida 1-o‘rinni 2-bosqich talabasi Javohir Shahobov, 2-o‘rinni 3-bosqich talabasi Feruz Asliyev, 3-o‘rinni 2-bosqich talabasi Timur Mavlonov, 4-o‘rinni 3-bosqich talabasi Visola Shuhratovalar egalladi va respublika bosqichiga chiqish imkoniyatini qo‘lga kiritishdi.

2022-yil 26-mart kunida respublika miqiyosida 30-marotaba o‘tkazilgan “Yapon tili notiqlik san’ati” tanlovida Samarqand davlat chet tillar instituti mezbonlik qildi. Tanlovga Yaponiyaning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Fujiyama Yoshinuri janoblarining tashrifi hamda talabalarimizga qarata “Biz sizlarga Yaponiyada grant asosida tahsil olishlaringiz uchun turli xil ko‘rik-tanlovlarni tashkil etamiz” deya ta’kidlagan so‘zlari talaba-yoshlarda katta ishonch va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarining yanada oshishiga sabab bo‘ldi.

30-marotaba o‘tkazilgan “Yapon tili notiqlik san’ati” tanlovida institutimiz talabasi Javohir Shahobov 1-o‘rinni, Feruz Asliyev 3-o‘rinni egallab, tanlovning Markaziy Osiyo bosqichida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lishdi, bundan tashqari, Visola Shuhratova tanlovning maxsus sovrini “Eng tushunarli nutq” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi. Ushbu tanlovning Markaziy Osiyo bosqichida Javohir Shahobov 1-o‘rinni egallab, mutlaq g‘olib-likni qo‘lga kiritdi.

Zero, biz ishonamizki, ta’limga qaratilgan e’tibor hech qachon o‘zining samarasini bermay qolmaydi. Shijoatli yoshlarimiz berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, el koriga yaraydigan farzandlar bo‘lib yetishib chiqadi.

**Kamola AMANULLAYEVA,**
**SamDCHTI “Uzoq sharq tillari” kafedrasi mudiri, dotsent.**

## O´QUVCHI-YOSHLAR QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BEFARQLIKKA YO´L QO´YMANG



Bolalik – inson umrining takrorlanmas bahori. Dunyoga cheksiz hayrat bilan boqqan mittigina bolaning murg‘ak qalbida olam-olam orzular, samimiy sof tuyg‘ular barq uradi. Ular qiziquvchan, ular beg‘ubor va ishonuvchan. Tezroq ulg‘ayib hayotning sir-sinoatlaridan bahramand bo‘lishga oshiqadi.

Biz kattalar ulardagi ana shu qiziqishlarni rag‘batlantirib borishimiz lozim. Ularning ta’lim-tarbiyasiga e’tiborni bolaligidan boshlashimiz juda muhim. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, 6-8 oylik bolalarga ertaklar, she’rlar o‘qib bera boshlash kerak. Kundalik faoliyatimiz qay tarzda o‘tishidan qat’iy nazar, farzandlarimizga yetarlicha vaqt ajratishimiz lozim.

3-4 yoshli bolalar, odatda, ko‘p savol berishadi. Aynan mana shu yoshda ularda tabiatga, atrof-muhitga qiziqish juda ortadi. Bizdan esa ularning har bir savollariga erinmasdan, bolaga tushunarli tarzda javob berish talab etiladi. “Ishdan charchab kelganman”, “ortiqcha savol berma” qabilidagi gaplar bola qiziqishlarini so‘ndirib boradi. Bu singari gaplar o‘rniga bolaning qo‘liga kitob tutsak, nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Kitobga mehr qo‘ygan bolaning ortiqcha keraksiz narsalarga vaqti bo‘lmaydi. Farzandimizga ta’lim va tarbiya jarayonini birdek, uyg‘unlikda olib borsak, kelajakda o‘z mustaqil fikriga ega, yetuk shaxs bo‘lib yetishadi.

Ta’lim va tarbiya oiladan boshlanadi. Bog‘cha, maktab va oliy o‘quv yurtlarida bu jarayon pedagoglar yordamida keng doirada amalga oshiriladi. Hozirgi kunda yurtimizda “Yosh kitobxon”, “Kitobxon oila” singari tanlovlar o‘tkazilayotgani yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga ko‘rsatilayotgan e’tiborning yorqin namunasidir.

“Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” deganlaridek, bola ta’lim-tarbiyasiga nafaqat ota-ona, balki qo‘shnilar, mahalla-ko‘y, butun jamiyat birdek mas’uldir.

Bolaning ta’lim olish jarayonida ota-onaning ko‘magi juda katta ahamiyatga ega. Farzandimizni telefon yoki internet bilan ovutmasdan, kitobga mehrini uyg‘otishimiz, uy vazifalariga ko‘maklashishimiz, yutuqlarini munosib ravishda taqdirlab borishimiz uning ilm-fanga muhabbatini oshiradi. O‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, maqsad sari intilishida katta ahamiyat kasb etadi. Imkon boricha bolada bo‘sh vaqt qoldirmaslik lozim. Ana shunda uning hayotida turli xil yot g‘oyalarga o‘rin qolmaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida ota-onalar va o‘qituvchilar hamkorlikda ish olib borishsa, ko‘zlangan natijaga erishiladi. Kelajak avlodning qanday shaxs bo‘lib yetishishi uning qanday insonlardan ta’lim-tarbiya olishi bilan chambarchas bog‘liq.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Ayniqsa, o‘smirlar orasida axloqiy va ma’naviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish muhim. Zero, axloq yo‘q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o‘rinni egallaydi. Maktab va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tarbiyachilari (o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida o‘quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o‘rgatishdek muhim vazifa turadi.

Ko‘pchilik ota-onalar o‘z bolalarining barcha talablarini bajarishga harakat qiladilar va to‘laqonli hayotga tayyorlashning asosiy yo‘li mana shundan iborat deb hisoblaydilar. Ammo, bu hol har doim ham ko‘zlangan natijani bermaydi. Bola haddan tashqari injiq va har doim o‘z aytganini qiladigan bo‘lib o‘sadi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borish lozim.

Ma’naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalari va atrofdagilarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rgan bola shunga qarab shakllanadi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So‘ng asta-sekin qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma’naviyati, bilimi ham muhim ahamiyatga ega.

Bolalarning ongini hozirgi zamon ma’naviyati bilan sug‘orish kerak. O‘quvchilarni qadriyatlarimiz asosida, urf-an’analarimiz negizida tarbiyalash har bir o‘qituvchining vazifasidir.

O‘quvchi-yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste’dod va iqtidorni ongli rag‘batlantirish, ularning ijobiy qiziqishlari rang-barangligini oshirish, turli ko‘rgazmali tadbirlarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish lozim. Iste’dodli bolalarni taniqli olimlar laboratoriyalarida shug‘ullanishi, shoir, yozuvchi, rassom kabi san’at namoyondalari bilan hamkorlik qilishini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muhitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa, respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topish hamda ularning ta’lim va tarbiyasini muntazam ravishda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhimdir.

**Maftuna BOBOYOROVA,**
**SamDCHTI o‘qituvchisi.**

# KONSTITUTSIYAGA TAKLIFINGIZ BORMI?

Boshlanishi 1-betda

Tadbirda partiya Siyosiy Kengashi raisi o‘rinbosari Abdukamol Rahmonov so‘z olib, bosh Qomusimizga zamon talablaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali uni yanada takomillashtirish O‘zbekistonni dunyoning rivojlangan demokratik davlatlari safidan o‘rin olishida muhim omil bo‘lishini ta’kidladi hamda yig‘ilganlarni mazkur muhim va mas’uliyatli jarayonda faol bo‘lishga chaqirdi. Shuningdek, tadbirda hech bir huquqiy hujjat “dogma”, ya’ni toshga o‘xshab qotib turmaganidek, Konstitutsiya ham mamlakat rivojiga monand ravishda, xalqning manfaatlarini to‘liq ko‘zlagan holda takomillashib borishi zarurligi va shundagina bosh Qomus xalqning xohish-irodasini o‘zida to‘laqonli aks ettira olishi ta’kidlandi. Qolaversa, kun tartibidagi masala partiyaning tashabbuslari va dasturiy maqsad-vazifalariga to‘la mos kelishi aytib o‘tildi.




Malohat Karimova, tuman tibbiyot birlashmasi hamshirasi – avvallari oilalarga yer maydonlari ajratilar edi. Hozirda yer kerak bo‘lsa, auksion orqaligina olishingiz mumkin. Oilalar uchun ipoteka kreditlari asosida uy-joy ajratilyapti, ammo ularning narxi juda baland. Boshlang‘ich to‘lovidan keyin oyiga 3.5 million so‘mdan tushadi. Oddiy misol tarzida aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda 2 million so‘m maosh oladigan fuqaro pulini kreditiga yetkazsinmi, bola-chaqa, ro‘zg‘orini kamini yopsinmi? Shu uy-joy narxi borasida ham takliflarni e’tiborga olishsa, yaxshi bo‘lar edi.

Sherali Ravshanov, shifokor – bosh Qomusimizning 40-moddasida har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. Tibbiyot sohasida aqlli tibbiyotni amaliyotga keng joriy etishni yo‘lga qo‘yish zarur deb hisoblayman. Aqlli tibbiyot – bu barcha uchun yaxshiroq tashhislashni, yaxshiroq davolashni, yaxshiroq kasallikning oldini olish imkonini beradigan, insonlarning turmush tarzi sifatini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy innovatsion texnologiyalardan tashkil topgan tizim bo‘lib, “Aqlli tibbiyot” va “Yagona tibbiy ma’lumotlar markazi” konsepsiyalarini ishlab chiqish va amliyotga tadbiq qilish, shifokorlar amaliyotida tashhis qo‘yishga asoslangan zamonaviy dasturlarni tadbiq qilishga va bemorlarni davolashda standartlardan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

O‘zaro savol javoblar, munozaralarga boy bo‘lgan tadbirda partiya faollari va ilg‘orlarning fikr-mulohazalari tinglanib, davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldor qator takliflari olindi. Tuman tibbiyot birlashmasi qoshida partiyaning Boshlang‘ich tashkiloti tashkil etilib, partiya safiga yangi a’zolar qabul qilindi.

Qo‘shrabot tumanining “Pangat”, “Buloqboshi”, “Bolg‘ali” mahalla fuqarolar yig‘inlarida ushbu tadbirning uzviy davomi sifatida fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar tashkil etilib, taklif va murojaatlari tinglandi.

Anvar Dostonov, “Buloqboshi” MFY faoli – tibbiyot sohasi xodimlariga nisbatan qilinadigan tazyiq, haqoratlarga qat’iy jazo choralarini qonun yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yish zarur. Bundan tashqari, Qo‘shrabot tumani viloyatimizning eng chekka hududlaridan bo‘lganligi sababli ishlab chiqarish zavodlari, korxonalar qurilsa, yoshlar, xotin-qizlar bandligini ta’minlashga, chekka hududlarni ham yanada obodonlashib, ko‘rkamlashishiga hissa qo‘shilgan bo‘lar edi.

Matluba Sindorova, “Buloqboshi” MFY faoli – bilasizlar, biz istiqomat qilayotgan joylar viloyatning chekka hududlari. Yoshlar uchun juda katta imkoniyatlar yaratilyapti, bizning hududda ham ko‘proq xorijiy tillarga e’tibor qaratilib, maktabgacha ta’limdan kuchaytirilgan ta’lim-tarbiya berishga ko‘proq e’tibor qaratilsa yoxud tumanimizning markazdan uzoqligini inobatga olib, biror bir oliygohning hududiy filiali tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, Matluba Sindorovaning ushbu taklifi partiya faollari e’tiboridan chetda qolmadi. Samarqand davlat chet tillar instituti rektori Ilhomjon To‘xtasinov bilan bog‘lanib, ta’limda xorijiy tillarni kuchaytirgan holda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, olis hududda yashovchi yoshlarga qulayliklar yaratish maqsadida Qo‘shrabot tumanida institutning filialini tashkil etish taklifi bildirildi. Ilhomjon To‘xtasinov ayni paytda ushbu hududga yaqin masofada bo‘lgan Narpay tumanida ham Samarqand davlat chet tillar instituti “Xorijiy tillar” fakultetining mavjudligini ma’lum qilib, ushbu fakultetda Qo‘shrabot tumani uchun ham qo‘shimcha kvota ajratishga hamda kelgusi yillardan esa mazkur hududda ham talab va takliflar asosida institut filialining tashkil etilishida yaqindan ko‘mak berishini ta’kidlab o‘tdi.

**Muhiba BABABEKOVA,**
**O‘zbekiston “Adolat” SDP Samarqand viloyat Kengashi raisi,**
**Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi deputati.**

# DUNYO XABARLARI

## BILL GEYTS YOZGI TA´TIL UCHUN 5 TA KITOB TAVSIYA QILDI

Microsoft asoschisi Bill Geyts o‘zining Gates Notes blogida an’anaviy rubrika asosida kitob tavsiyalari berib boradi. Bu safar u yozgi ta’tilda o‘qish uchun 5 ta kitob tavsiya qildi.

2022-yil yozi uchun tavsiya qilingan kitoblar gender tengligi, siyosiy qutblanish, iqlim o‘zgarishi va hayot hech qachon yoshlar o‘ylagandek bo‘lmasligi haqidagi haqiqatlar haqida.

Bill Geytsning o‘zi ta’kidlaganidek, bu mavzularni ta’tilda o‘qish juda qiyin. Biroq uning fikricha, mualliflar murakkab mavzular mohiyatini tushunarli tilda yoritib bera olgan.

**The Power, Naomi Alderman**

"Kuch" — Naomi Aldermanning ilmiy-fantastik asari. Kitob o‘z tanasi orqali elektr toki chiqarib, u bilan zarba berish qobiliyatiga ega bo‘lgan ayollar haqida.

Geyts ushbu kitobni o‘qib chiqqach, AQShda va butun dunyoda gender masalalari bilan shug‘ullanadigan odamlarga katta minnatdorchilik bildirganini ta’kidlaydi.

**Why We’re Polarized, Ezra Klein**

“Nega biz qutblanganmiz” — bu kitobda muallif AQShdagi siyosiy qutblanishni tahlil qiladi. Geytsning so‘zlariga ko‘ra, kitob Qo‘shma Shtatlarda haqiqatda nimalar bo‘layotgani, mamlakat ichida ma’lum kuchlar qanday rivojlangani va zamonaviy siyosat nega tortishuvga aylanganini tushunish uchun juda muhim.

**The Lincoln Highway, Amor Towles**

“Linkoln shossesi” — kitobning asosiy qahramonlari — onalarini topish uchun Nebraskadan Kaliforniyaga borishga harakat qilayotgan ikki aka-uka. Voqea 1954-yilda sodir bo‘ladi. Muallif kitobxonlarga uzoq safarga turli nuqtayi nazardan qarash imkoniyatini beradi.



**The Ministry for the Future, Kim Stanley Robinson**

“Kelajak vazirligi” — bu iqlim o‘zgarishi haqidagi kitob. Mavjud tendensiyalarga asoslanib, muallif yaqin kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan voqealar haqidagi tasavvurini yoritadi. Asar barcha sohalarni qamrab oladi: iqtisodiyot, siyosat, texnologiya, ekologiya. Muallif voqealar yakuniga qadar optimist bo‘lib qoladi va insoniyatni qutqarish yo‘lini topadi.

**How the World Really Works, Vaclav Smil**

“Dunyo haqiqatan qanday ishlaydi” — bu kitobda kanadalik iqtisodchi va ekolog Vatslav Smil inson hayotini global iqtisodiyot bilan bog‘laydigan muammolarni axborotni boshqarish nuqtay i nazaridan ko‘rib chiqadi. Geytsning so‘zlariga ko‘ra, Smilning kitobi inson hayoti qanday kuchlar ta’sirida shakllanayotgani haqida bilishni istaganlar uchun ajoyib asardir.

Avvalroq Bill Geyts 2021-yil davomida o‘qigan eng sevimli kitoblari haqida ma'lumot bergan edi.

## ELEKTROMOBILLAR HAQIQATAN HAM HAVONI KAMROQ IFLOSLANTIRADIMI?



Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti yonilg‘ida harakatlanuvchi avtotransport vositalarini havoga chiqarayotgan karbonat angidrid gazini hisoblab chiqdi. Natijalar elektromobillar bilan solishtirildi.

Elektromobillardan foydalanish jarayonida ajralib chiquvchi CO2 (uglerod dioksidi, karbon dioksidi, karbonat angidridi) miqdori nolga teng bo‘lgani bilan, elektr energiyasini ishlab chiqarishda hosil bo‘luvchi uglerod dioksidini unutmaslik kerak.

Elektr energiyasi ko‘mirdan olinganda atmosferaga juda ko‘p miqdorda CO2 ajraladi.

O‘zbekistonda elektromobillarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida Farg‘ona viloyatida Xitoyning Hong Kong ZRSC Technology korxonasi bilan, Buxoro viloyatida Janubiy Koreyaning Songuo Mobility Innovation korxonasi bilan hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishga kirishildi.

Avtomobillarning CO2 emissiyasi hajmini aniqlash murakkab hisob-kitoblarni talab qiladi.

# PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TEACHER

Before we determine the professional skills expected of teachers, we must define the term “competent teacher”. Thus, in particular, competent teachers are teachers who deploy their knowledge, abilities, skills, talents, values, attitudes and behaviour patterns to meet the challenge of educating their students. They possess the professional skills needed and adequate to perform their assigned duties and attain the educational goals that the law requires.

Competency is the conscious use of one's own knowledge, abilities, skills, talents, values, attitudes and behaviour patterns, in order to resolve issues and problems, overcome challenges, fulfilling one's duties and achieving the aims proposed.

Teachers’ competency in science means the teachers’ conscious use of their cognitive abilities in order to acquire, deploy and manage the knowledge specific to the field, subject or topic in which they specialize and to their knowledge of teaching. It involves skill at searching, processing, evaluating, assimilating, integration and use of information and knowing as well as reflection, research and knowledge creation.

Teaching competency means knowing how to combine goals, contents, activities, methodology, materials, resources and assessment in order to ensure that one's students acquire the prescribed basic sets of skills. Seven aspects of teaching competency can be distinguished. They are outlined below:

Designing curricula.

• Applying teaching methods specific to certain fields, subjects and topics.

• Methodology and activities.

• Diversity awareness.

• Classroom management (learning space).

• Curriculum resources and materials.

• Assessment.

Competency in group harmony management. Teachers’ competency in managing group dynamics means their conscious use of their abilities, knowledge, values, attitudes and behaviour patterns to encourage an enabling educational environment within the school, fostering an appropriate relationship in order to attain the educational goals the school has set. This implies that teachers must be capable of resolving issues and problems arising from community life, and that may ensue from personal relationships among members of the educational community. Skill at:

• Maintaining leadership by encouraging enthusiasm, interest and effort.

• Plan, manage and resolve conflicts or issues.

• Create a suitable emotional atmosphere.

• Drive group efforts and create environments characterised by mutual trust and respect.

• Early detection of problems.

Competency in innovation and improvement is the practical application of new ideas, proposals and educational practices in order specifically to improve, the development of students’ skills and the educational system in general. Every innovation implies changes and induces a quest for betterment. We should combine effectiveness, efficiency and authenticity for innovations to succeed.

Pedagogy that is grounded on different implementations of four game-based approaches:

using educational games,

using entertainment games,

learning by making games,

using game elements in non-game contexts (i.e. gamification).

The definition encompasses both in digital and nondigital contexts. The first three approaches are based on definition of game-based learning, while gamification has more recently become prevalent as a separate concept.

In practice, different approaches often coexist and overlap. Forexample, a learning project might be based on a fictional narrative where one task involves solving a mystery within an entertainment game, another involves demonstrating a specific skill in an educational game, and yet another requires creating a challenge for peers by making a small game using a game-creation tool.

**Zarina VAFAYEVA,**
**The seniyor teacher of the chair “Methods of teaching foreign languages”.**

## TELEGRAM PULLIK BO´LYAPTI?

Telegram bir qancha pullik funksiya va xizmatlarni o‘z ichiga olgan obunasini joriy qilmoqda. Bu haqida kompaniya ma’lum qildi.

Qayd etilishicha, bu messenjer uchun reklama platformasidan keyingi ikkinchi monetizatsiya usuli bo‘lib, u ilovani saqlash xarajatlarining bir qismini qoplaydi va ishlab chiquvchilarga kelgusida ham foydalanuvchilarga cheksiz va bepul xizmat ko‘rsatishda davom etish imkonini beradi.

*Telegram Premium narxi oyiga $5 bo‘ladi.*

**Limitlarni oshirish**

Pullik obuna sizga messenjerning ayrim cheklovli funksiyalarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi – qoida tariqasida, ruxsat etilgan chegaralar ikki baravar ko‘payadi:

– Chatlar soni (100 → 200).

– Obuna bo‘lish mumkin bo‘lgan kanallar va superguruhlar soni (500 → 1000).

– Jildlar soni (10 → 20).

– Asosiy sahifa (5 → 10) va jild ichidagi (100 → 200)




mahkamlangan dialoglar soni.

– Kanallar va super guruhlar uchun ochiq havolalar soni (10 → 20).

– Sevimli stikerlar soni (5 → 10).

– Saqlangan GIF’lar soni (200 → 400).

– Ilovaga alohida raqamlar bilan ulangan akkauntlar soni (3 → 4).

– 4 GB gacha bo‘lgan fayllarni yuklash imkoniyati

– Telegram Premium egalari messenjer “bulut”iga 4 GB gacha bo‘lgan hajmdagi fayllarni yuklashlari mumkin bo‘ladi.

Pullik obunaga ulanmagan foydalanuvchilar odatdagidek 2 GB gacha bo‘lgan media materiallarni jo‘natishi mumkin bo‘ladi. Ilova xotirasi Telegram’dan foydalanuvchi har bir kishi uchun cheksiz bo‘lib qolmoqda.

# REKLAMALARNING MANIPULATSION XARAKTERI HAMON USTUNDIR




Barchamizga ma’lumki, reklamalar psixologik qonuniyatlar asosida tayyorlanadi. Ammo reklamaning tibbiy-psixologik tomonlari inobatga olinadimi?

Xo‘sh, reklamalarda til qoidalari va mantiq buzilayotgan bo‘lsa-chi? Unda ular ikki hissa zararli bo‘lmasmikan?! Tushunganlar “shu xatoni hali ham tuzatishmadi”, – deb asabiylashsa yoki aksincha bunday xatolar tushunmaganlarni yanada chalasavod bo‘lishiga olib kelishi turgan gap. Har bir millatning o‘ziga xos hayot tarzi bor. Chetdan kirib kelayotgan reklamalardagi ayrim tasvirlar o‘sha millat uchun oddiy hol bo‘lsa-da, bizga yot ekanini kattalar tushunar, ammo yoshlar-chi?

Bu o‘rinda milliy qadriyat, urf-odat, milliy ong-u tafakkurimiz aslo e’tibordan chetda qolmasligi kerak, albatta.

Shuningdek, tashqi reklamalar, ya’ni shahrimiz ko‘chalaridagi bannerlar, pannolar, bozor-u do‘konlar peshtoqidagi yozuvlarda uchraydigan xatoliklar, til qoidalarining buzilayotganligi to‘g‘risida ko‘p bor bong urildi va bu chiqishlar anchagina ish bergan ko‘rinadi. Bugun bu borada jiddiy, qo‘pol xatolar ko‘zga tashlanmasada, ammo bu xato umuman yo‘q, degani emas. Tashqi reklamalarda ham rus yoki boshqa tillardan to‘g‘ridan to‘g‘ri ya’ni kalkalash orqali qilingan tarjimalarda mantiqiy g‘alizliklar hali ham bor. Misol qilib “Мы открылись”ning “Biz ochildik” tarzida o‘girilganini aytishimiz mumkin. Aynan bitta joyda bo‘lsa qaniydi, butun shahar miqiyosida – choyxonadan tortib, katta savdo majmualari peshtoqigacha shu – “Biz ochildik”. Shuningdek, Yangi yil bayrami arafasida ko‘p takrorlangan, hozir ham shaharning aksariyat hududlarida uchraydigan “Coca-cola” reklamasi rus tilida “Подари счатия другому” bo‘lib, o‘zbekcha muqobilini “Yaqiningga baxt ulash”, tarzida tarjima qilib berishdi. Aslida, “Boshqalarga ham shodlik (chunki baxt kengroq tushuncha) ulash” deyilsa, to‘g‘ri bo‘lmasmidi?! Reklamalardagi matnlar, tarjimalar rus va o‘zbek tillarini mukammal biladigan mutaxassis nazaridan o‘tkazilishi zarurligini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Yoshlarning savodxonligi, o‘zbek tiliga e’tibor va hurmat aslo oddiy masala emas.

Yana bir masalaga alohida to‘xtalib o‘tish kerak deb o‘ylayman. Yuqorida xatoliklar ancha kamaygani haqida gapirdik. Bu tomonidan xursand bo‘lsak, ammo boshqa tomondan…

Markaziy ko‘chalardagi aksariyat reklamalar, do‘konlar peshtoqidagi yozuvlar, xususan, savdo markazlaridagi barcha do‘konlar nomi yo rus, yo ingliz tilida. Hozirgi kunda ushbu ikki tilni ko‘pchilik biladi, tushunadi, bu yaxshi, albatta. Lekin bu o‘zbekcha nomlardan voz kechib, o‘z tilimizga e’tiborsizlik qilish mumkin, degani emas. To‘g‘ri, har uchala tildan foydalanilgan o‘rinlar ham uchraydi, ulardan o‘rnak olsa arziydi. Ammo diqqat qilgan bo‘lsangiz, bu borada o‘zbek tilidan foydalanish nari borsa o‘n-o‘n besh foizni tashkil etyapti, xolos.

Bir qator mamlakatlarda, xususan, Xitoyda taraqqiyot natijasida kirib kelgan yangi so‘zlarga nisbatan ibratli yondashuv bor ekan: ular ushbu so‘zlarning o‘z tilidagi muqobilini topib, shuni qo‘llash taklifini kiritishar ekan. Natijada til sofligi, millatga, qadriyatlarga hurmat saqlanib qoladi. Biz esa o‘z tilimizdagi so‘zlarni qo‘llashdan yo uyalyapmiz, yo bo‘lmasa bu ommaviy madaniyatning salbiy ta’siridir.

Ko‘chalardagi yozuvlar ham bundan buyon mukammallik darajasida bo‘lishiga umid qilamiz.

**Feruza XAMDAMOVA,**
**SamDCHTI “Ingliz tili o‘qitish metodikasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchisi**

## BOLALARNI ZARARLI AXBOROTDAN HIMOYA QILISH BILAN BOG´LIQ XIZMAT ISHGA TUSHDI



Bolalarni zararli axborotdan himoya qilish bilan bog‘liq yangi xizmat ishga tushdi. Bu bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 317-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjat asosida my.gov.uz portalida “Bolalar sog‘ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish bo‘yicha ekspertlarni akkreditatsiya qilish” xizmati ishga tushirildi.

Endilikda bolalar sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasi ekspertlari akkreditatsiyadan o‘tish uchun elektron ariza berish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Talabgorlar oliy ma’lumotga, pedagogika, yoshga oid psixologiya va fiziologiya, bolalar psixiatriyasi sohalarida bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Ekspertlarni akkreditatsiya qilish AOKA tomonidan amalga oshiriladi.

Akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan ekspertlarga 5 yil muddatga amal qiluvchi guvohnoma beriladi.

Xizmatdan foydalanishda to‘lov undirilmaydi.

***Internet materiallari asosida tayyorlandi.***

INTELLEKT

Muassis:
Samarqand davlat chet tillar instituti

Bosh muharrir: Ilhomjon To‘xtasinov

Tahrir hay’ati:
Fazliddin Ro‘ziqulov (rais), Otabek G‘aybullayev, Shaxobiddin Ashurov, Otabek Yusupov, Erali Rahmatov (a’zolar)

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida 2020-yil 22-iyulda 09-15 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Gazeta «Intellekt» gazetasi tahririyati kompyuterida sahifalandi. «Sherdor plyus poligraf» bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, 140100, Ulug‘ Tursunov ko‘chas 82-uy.
Qog‘oz bichimi: A-2. Adadi: 1 000 Buyurtma: № ______

Bosishga topshirish vaqti: Soat 18:00 da. 2022-y. 15-iyun
Bosishga topshirildi: soat 19:10 da
Bahosi kelishilgan narxda
t - tijorat material

Bosh muharrir o‘rinbosari: Asilbek Abduraimov

Nashr indeksi: 5588

*Maqola va xabarlarda keltirilgan ma’lumotlar uchun muallif javobgar*

***Manzil:*** 140104, Samarqand shahri, Bo‘stonsaroy ko‘chasi 93-uy. Telefon: +998 (97) 575-94-54

***Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar qaytarilmaydi. Muallif nuqtayi nazari bilan tahririyat fikri to‘g‘ri kelmasligi mumkin.***